

Davlat zaxiralar komissiyasining
2023-yil “8” iyundagi
1295-son bayonnomasiga
3-ilova

MOLIBDEN MA’DANLI KONLARIGA NISBATAN ZAXIRALAR TASNIFINI QO’LLASH BO’YICHA YO’RIQNOMA

- I. Umumiy ma’lumotlar
- II. Konlarni geologik tuzilishning murakkabligi bo’yicha guruhlash
- III. Konlarning o’rganilganligiga oid talablar
- IV. Zaxiralarni hisoblashga qo’yiladigan talablar
- V. Konlarning o’rganilganlik darajasini baholash
- VI. Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash
- VII. Xulosa

Ilova. Qattiq foydali qazilmalar konlari geologik tuzilishi murakkabligining xarakterli ko’rsatkichlari.

Mazkur “Molibden ma’danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo’llash bo’yicha yo’riqnoma” (keyingi o’rinlarda – “Yo’riqnoma”) molibden jinslar konlarining zaxiralarni o’rganish va hisoblashning asosiy talablari, ularning sanoat miqyosida o’zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

Yo’riqnoma O’zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo’mitasi tomonidan 28.07.2007 yilda “Molibden ma’danli konlarga nisbatan zaxiralar tasnifini qo’llash bo’yicha yo’riqnoma” 108-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o’rniga ishlab chiqilgan.

Yo’riqnomaga molibden jinslar, ularning zaxiralarini hisoblash bo’yicha geologik-qidiruv ishlari bo’yicha mahalliy va xorijiy amaliyotni inobatga olib hamda yangi “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarning tasnifi”ga (26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasiga 4-son ilova) muvofiq o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritilgan.

Mualliflar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

I. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1. Molibden-kumushsimon-kulrang cho'ziluvchan, zichligi 10,02-10,32 g/sm³, issiqlikka chidamliligi juda yuqori (erish harorati 2620 ± 20 °C), yengil degazatsiyali, kichik bug' bosimi, elektr - va issiqlik o'tkazish ko'rsatkichi yuqori, chiziqli kengayish koeffitsiyentiga ega kichik, juda mustahkam, qayishqoqlik moduli yuqori va yaxshi ishlanadigan metall.

Qazib olinadigan molibdenning 80 foizdan ortig'i qopa metallurgiyada legirlovchi qo'shimcha sifatida, zanglamaydigan yuqori sifatli po'lat hamda qattiq, o'tga va kislotalarga chidamli qotishmalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Oxirgi vaqtda ulardan sof holda, masalan, turbinalar parraklarini ishlab chiqarishda va yadro reaktorlarining konstruksion materiali sifatida foydalanish imkoniyati kengaydi.

Molibdenning kimyoviy birikmalari keng foydalaniladi: xususan, molibden disulfididan (sof molibden) sifati bo'yicha grafitli moylash materiallaridan yuqori bo'lgan, mexanizmlarni ishqalanuvchi qismlarini moylashda qo'llaniladigan material sifatida, natriy molibdatidan – lok-bo'yoq ishlab chiqarishda, molibdendan esa kimyo sanoatida katalizator sifatida qo'llaniladi. Molibden birikmalaridan (asosan ammoniy molibdati shaklida) mikroo'g'itlar ishlab chiqarishda foydalanish ko'paymoqda.

2. Molibden kam tarqalgan elementlar qatoriga kiradi: uning massasi bo'yicha yer po'stlog'idagi o'rtacha miqdori – 1.1 x 10⁻⁴ %. Molibdenning 20 ta ma'lum mineralidan 4 tasi sanoat ahamiyatiga ega (1-jadval).

1-jadval.

Molibdenning eng muhim menerallari

Minerallar	Kimyoviy formulasi	Miqdori, Mo %
Molibdenit	MoS ₂	57,1–60
Molibdosheelit (zeyrigit)	Ca(W, Mo)O ₄	1–24
Povilet	CaMoO ₄	48,2
Ferrimolibdit	Fe ₂ ³⁺ (MoO ₄) ₃ · 7H ₂ O	39,7–60,2
Vulfenit	Pb (MoO ₄) ₃	27–46

Molibdenit – molibdenning bosh va eng ko'p tarqalgan minerali bo'lib, molibdenning 98 foizdan ortig'i moliben ma'danlaridan olinadi. Yuqori soflik bilan tavsiflanadi: uning tarkibida ko'pincha reniy(1 tonnada 1000 grammgacha), kamroq esa selen bilan tellur aralashma holda uchraydi.

Molibdosheyelit – sheyelitning turi bo'lib bunda volfram ionlarining bir qismi kristallik panjarasida molibdenit ionlari bilan almashadi. Tarkibida odatda 6-8%, ba'zida 24 foizgacha MoO₃ bo'ladi.

Molibdosheyelit ultrabinafsha nurlari bilan nurlantirilganda sariq rang bilan lyuminessensiyalanadi.

Povellit – molibdenit konlarining oksidlanish zonasidagi eng ko'p tarqalgan mineraldir. Pavellitning o'ziga xos belgisi – ultrabinafsha nurlar bilan yoritilganda, yorqin sariq rang bilan lyuminessensiyalanishidir.

Ferrimolibdenit cheklangan amaliy ahamiyatga ega. Molibdenit ma'danlari

konlarining oksidlanish zonasining pirit yoki pirrotin miqdori ko'p bo'lgan uchastkalarida va ularning oksidlanish mahsulotlarida uchraydi. Tarkibida molibden bo'lgan minerallarning xlorit kislota va ishqorlarda erishining turliligi, molibdenit hamda povellit va ferrimolibdenitlar bilan bog'liq molibden miqdorini alohida-alohida aniqlash imkonini beradi.

Tarkibida molibden bo'lgan boshqa minerallar (vulfenit, kexlinit, komozit, lindgrenit, chillagit, iordizit va B.) kamroq uchraydi.

3. Molibden ma'danlari tarkibiga ko'ra molibdenli, mis-molibdenli va volfram-molibdenli ma'danlarga bo'linadi. Ular bilan birgalikda oltin, kumush, reniy, selen, tellur va germaniy ajratib olinadi. O'z navbatida molibden ayrim volfram, mis, polimetall va uran konlarining ma'danlari bilan birga uchraganda hisobga olinadi va ajratiladi.

Zaxiralari bo'yicha (ming tonna) molibden mayda (10-20), o'rta (20-50), yirik (50-100) va juda yirik (100 dan yuqori) konlarga bo'linadi.

4. Molibden ma'danlarining endogen konlari uchta sanoat tiplariga – shtokverkli, skarnli va tomirli konlarga ajratiladi (2-jadval).

2-jadval

Molibden ma'danli konlarining sanoatbop turlari

Konning sanoatbop turi	Ma'danlarning mineral tarkibiga ko'ra konlar guruhi	Asosiy ma'dan hosil qiluvchi minerallar	Foydali komponentlarning miqdorlari			Birga uchrovchi komponentlar	Ma'dan tanalarining strukturaviy-morfologik turi	Konlarga misollar
			Mo	Cu	WO ₃			
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Shtokverkli	Molibdenli	Molibdenit	0,05-0,25	-	-	Mis, qo'rg'oshin, rux, vismut	Maydoni planda ming va o'n ming metrni, chuqurligi 1000 va undan ortiq Shtokverklar	Kleymaks, Kveyeta (AQSH); Endako (Kanada); Jireken, Bugdainsk (Rossiya)
	Volfram-molibdenli	Molibdenit, volframit yoki sheelit	0,03-0,1	-	0,06-0,6	Mis, vismut		Janubi-Sharqiy Xitoy; Argentina konlari; Djanet, Koktenkol (Rossiya)
	Mis-molibdenli	Molibdenit, xalkopirit	Foizning mingdan va yuzdan bir qismlari	0,2-1,0	-	Oltin, kumush, vismut, selen,tellur,reniy, germaniy		Bingem, Morensi (AQSH); Chukikamata (Chili); Kadjaransk (Armeniya); Sorsk (Rossiya)
Skamli	Volfram-molibdenli	Molibdenit-molibdo-sheelit	0,03-0,2	-	0,1-0,8	Mis, vismut selen, tellur,oltin, kumush	Qalinligi 100 va undan ortiq, yo'nalish bo'yicha uzunligi o'nlab m.dan 1-2km.gacha, yotishi bo'yicha o'nlab m.dan km.gacha bo'lgan uyumlar.	San-Dong (Janubiy Koreya); Tirniauz (Rossiya); Yandzya-Chjanzi (XXR)

1	2	3	4	5	6	7	8	9
Skarqli	Mis-molibdenli	Molibdenit xalkopirit	0,03-0,04	0,25-0,3	-	Selen,tellur, oltin, qalay, vismut		
Tomirli	Molibdenli	Molibdenit	0,1-0,9	-	-	Qo'rg'oshin, rux, kumush	Qalinligi sm.dan bir necha metrgacha, uzunligi o'nlab metr dan 1-2km.gacha, yotishi bo'yicha o'nlab metrdan 500m. gacha	Kvesta (AQSH); Shaxtaminsk, Kalgutinsk (Rossiya)
	Molibden- volframli	Volframit,moli bdenit	0,05-0,4	-	0,3-2,0	Qalay, vismut,skandiy		

Shtokverkli konlar dunyo molibden zaxirasining 95 foizdan ortig'ini o'z ichiga olib, ularni qazib olishni asosiy manbai hisoblanadi. Molibden ma'dani bilan bog'lik ma'danlarning mineral tarkibi, geotektonik o'rni va magmatizmining tavsifi bo'yicha shtokverkli konlar molibdenli, mis-molibdenli va volfram molibdenli konlarga ajratiladi.

Monometall molibden ma'danli konlar kontinentlar va burmalanish tugallangan mintaqalarning tektono-magmatik faolligi jarayonida shakllanib, fazoviy va genetik jihatdan yirik o'rtacha nordonlikdagi granitlarning ekzo- va endokontaktlari bilan bog'liq.

Mis-ma'danli konlar strukturalarning kechki gersin rivojlanish bosqichida hosil bo'ladi. Ma'danlashuv genetik yoki paragenetik jihatdan bog'liq bo'lgan intruziyalarning monsonit qatori jinslardan iborat. Konlar asosan ona(materinskix) plutonlarning endokontakt zonalarida joylashadi.

Volfram-molibdenli konlar burmalanishning tugallangan mintaqalarda yoki tektono-magmatik faollashuv jarayoniga uchragan qadimiy qalqonli uchastkalarida muayyanlashadi hamda fazoviy va genetik jihatdan leykokratli granitlar bilan bog'liq bo'ladi.

Volfram-molibdenli Ma'danlashuv granitli massivlarning apikal qismlarida rivojlangan greyzenlar bilan ko'proq bog'liq bo'lib, granitli massivlarning endo- va ekzokontakt zonalarida joylashadi.

Shtokverklarning shakli quvursimon bo'lib, qatlamsimon va linzasimon uyumlar tipida hamda tik va qiya yotadi. Ma'danlashuvning tarqalishi notekis va ko'pincha uzuq-yuluq bo'lib, ma'danli uchastkalar noma'dan uchastkalar bilan almashib turadi. Biroq molibdenning shtokverklarda umumiy tarqalishi nisbatan tekis bo'lib, miqdorning variatsiya koeffitsiyent ko'rsatkichi odatda 50-100 foizni tashkil qiladi.

Shtokverkli konlar, odatda ko'p bosqichli hosilalar bo'lib, ma'danli zonallik namoyon bo'ladi. Bu molibden, volfram, mis, qo'rg'oshin minerallashuvining planda (gorizontal zonallik) va kesmada (tik zonallik) qonuniyatli tarqalishi bilan kechadi. Ma'danlarga tomirchali, tomircha-hol-holli, kamroq brekchiyalı teksturalar xos.

Skarnli konlar keng tarqalganligiga qaramay, cheklangan sanoat ahamiyatiga ega. Ma'danlarining tarkibiga qarab ular uch guruhga – volfram-molibdenli, molibdenli va mis- molibdenli konlarga bo'linadi. Yetakchi rol volfram-molibdenli konlarga tegishli.

Volfram-molibdenli va molibdenli guruhlar konlari tugallangan burmalar mintaqasi ustiga tushgan tektono-magmatik jarayonlar natijasida hosil bo'lgan. Volfram-molibdenli Ma'danlashuv bir turli leykokrat kaliyli granitlar bilan bog'liq bo'lsa, molibdenli Ma'danlashuv cho'kikliklarning ko'tarilgan yerlari va chekkalarida joylashgan biotit-shox aldamchili granitlarning plutonlari bilan assotsiatsiyada bo'ladi.

Mis-molibdenli konlar strukturalar rivojlanishining kechki orogen bosqichida shakllanadi va turli tarkibli granitoidlar bilan assotsiatsiyada bo'ladi.

Skarnlar murakkab shaklli uyumlar, shuningdek tomirlar, linzalar, uyalar va qatlamsimon tanalar hosil qiladi. Ular karbonatli va alyumosilikatli jinslarning

kontakt zonalarida, kamroq hollarda esa – o‘rta tarkibli effuziflar orasida yotadi.

Molibden **tomirli konlari** keng tarqalgan bo‘lsa-da, uning sanoatdagi ahamiyati katta emas. Ba’zi tomirli konlarni qazib olish ishlari Rossiya, Kanada va Norvegiyada olib boriladi

Molibdenning yirik ekzogen konsentratsiyalari ko‘mir, yonuvchi slanes, ko‘mirli-gilli va ko‘mirli-kremniyli slanes hamda qattiq neft bitumlarida uchraydi. Bu yerda molibden organik moddalar bilan bog‘liq bo‘lib, vanadiy, uran, germaniy va nodir yer elementlari bilan assotsiatsiyada bo‘ladi. Foydali komponentlarini ajratib olish texnologiyasi nisbatan murakkab bo‘lganligi uchun bunday konlar o‘zlashtirishga hozircha kam jalb qilinadi va ular kelajak zaxirasi deb hisoblanadi.

O‘zbekistonning tarkibida molibden bo‘lgan endogen konlarining asosiy geologik-sanoat turlari 3-jadvalda keltirilgan.

Tarkibida molibden bo‘lgan konlar va namoyonlar turli formatsion va morfo-strukturali tiplardan iborat. Bunda molibden ko‘p hollarda qimmatbaho yo‘ldosh komponent hisoblanadi.

Xususan, molibdenli namoyonlar keng tarqalgan bo‘lsa-da, ular mayda obyektlardan iborat. Bunday intruziv jinslaridagi kvars-tomirli va shtokverk tipidagi molibden namoyonlari Chotqol-Qurama hududida (Chavata, Unkurtosh, Chimyon, Ixnoch, Yong‘oqli, Shaugaz) va Janubi-G‘arbiy Hisorda (Obizarang) uchraydi. Molibdenning o‘rtacha miqdori foizning birinchi bir necha o‘n ulushini tashkil qiladi.

Respublikada molibdenning asosiy sanoatbop zaxiralari Olmaliq tumanining oltin-mis-porfirli konlarida (Qalmoqqir, Saricheku, Dalneye, Qizota) to‘plangan. Konlar kvarsli monsonitlarning porfirli kichik intruziyalari bilan bog‘liq bo‘lib, tomirli va hol-hol ma‘dan shtokverklaridan iborat. Molibdenning miqdori o‘rtacha 0,004-0,008 foizni tashkil qiladi. Molibden konsentratlaridan ajratib olinadigan reniy ham sanoat ahamiyatiga ega.

Odatda ko‘p fazali granodiorit va granit-adamellit tarkibli intruziyalar bilan bog‘liq skarn sheyelitli konlarda (Langar, Qo‘ytosh, Ingichka va b.) molibden miqdori ko‘p bo‘ladi. Uning eng ko‘p konsentratsiyasi (deyarli 0,01%) skarn-sheyelitli konlarda (Qo‘ytosh, Langar, Yaxton) aniqlangan. Qo‘ytosh va Langar konlarini qazib olishda molibden molibdenli sanoat mahsulotiga ajratib olinadi va molibden miqdori bunda 15-20 foizni tashkil qiladi.

Skarn (skarnoid)-sheyelitli ma‘danlashuv bilan ba’zida fazoviy tarkibida molibdenit, xalkopirit va oltin (Bukantov tog‘laridagi Saritov) bo‘lgan va granitoidlarda joylashgan kvars-sheyelitli shtokverklar assotsiatsiyada bo‘ladi. Molibdenning miqdori bunda 0,1-0,3 foizni tashkil qiladi. Kechki leykokratli granitlarda molibden yo‘ldosh komponent sifatida (0,02-0,03%) volframit-sulfidli (xalkopirit, sfalerit, galenit) ma‘danlashuvi bo‘lgan greyzen-kvarsli tomirlarda aniqlangan (Chotqol tog‘laridagi Sargardon, Barqirod).

Molibden Sharqiy O‘zbekistonning vulkanogen va intruziv jinslaridagi tomirli va shtokverk tipidagi uran konlari (Chauli, Olatanga, Shavoz) hamda Markaziy Qizilqumdagi uglerod-kremniyli slaneslardagi cho‘kindi-shtokverk tipidagi uran-vanadiy konlari (Djantaur, Rudnoye va b.) uchun xos yo‘ldosh (miqdori foizning o‘ninchi ulushigacha) komponent hisoblanadi. Ekzogen

konlardan molibden bilan boyiganlar (0,1-0,2%) Janubiy O‘zbekistonda rivojlangan (Boysun, O‘rtabuloq) yuraning yonuvchi slaneslaridir. Yonuvchi slaneslarning tarkibida vanadiyning yuqori konsentratsiyasi (0,3-0,6% V_2O_5), reniy (0,08%), uran (0,1-0,02%) va boshqa elementlar uchraydi. O‘zbekistonning tarkibida molibden bo‘lgan endogen konlarining asosiy geologik-sanoat turlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Geologik- sanoat turi sanoatbop	Ma'dan tanalarining strukturaviy- morfologik turi	Asosiy ma'danli minerallar	Ma'dandagi foydali komponentlar miqdorlari ,%			Yo'ldosh foydali komponentlar	Konlarning misollari
			Cu	WO ₃	Mo		
Shtokverkli oltin- molibden-mis porfirli	Shtokverklar, qatlamsimon uyumlar, linzalar ustunlar	Xalkopirit, pirit, molibdenit, oltin, kumush	0,3-0,8		0,004-0,01	Kumush, reniy, selen, tellur	Qalmoqqir, Saricheku, Dalniy, Qizota
Aposkarn-shtokverkli molibden- volframli	Tik yotuvchi shtokverklar	Sheelit, molibdenit, pirit, xalkopirit, vismutin, oltin	0,03-1,5	0,1-0,2	0,005-0,3	Oltin, vismut, mis va b.	Saritov
Skarnli molibden- volframli	Kontaktli, qatlamsimon uyumlar	Sheelit, pirrotin, pirit, xalkopirit, sfalerit, molibdenit, vismutin	0,06-0,1	0,2-0,8	0,01-0,02	Mis, vismut, oltin	Langar,Qo'ytosh, Yaxton
Greyzen-kvarsli sulfid- volframli	Tomirlar, shtokverklar	Volframit, sfalerit, xalkopirit, galenit, kassiterit, molibdenit, vismutin	0,5-1,0	0,5-0,6	0,02-0,03	Qalay, mis, rux, qo'rg'oshin, vismut, kumush	Sargardon,Barkrak

5. Tarkibida molibden bo'lgan ma'danlarning texnologik xossalari ularning oksidlanish darajasi, mineral tarkibi, molibdenning miqdori, strukturaviy-teksturaviy xususiyatlari, yo'ldosh komponentlarning va zararli aralashmalarning borligi bilan bog'liq. Ma'danlar asosan mexanik tarzda (flotatsiya) boyitiladi. Molibdenitning flotatsiyalanish samaradorligi yuqoriligi, miqdori juda oz molibdenitdan ham asosiy ma'dandan tovar konsentratiga ajratganda 80 foizdan kam bo'lmagan, ba'zida esa 90-91% mahsulot olish mumkin.

Sulfidli mis-molibdenli ma'danlardan flotatsiya yordamida kompleksli mis-molibdenli konsentrat olinadi va u keyin qo'shimcha flotatsiya yordamida mis sulfidlari depressivlanayotganda misli va molibdenli konsentratga ajratiladi. Kvars-volfram-molibdenli ma'danlarni boyitishda gravitatsiya (volfram konsentratini olish uchun) va flotatsiya (molibden konsentratini olish uchun) usullari qo'shib olib boriladi.

Skarnli sheyelit-molibdenitli ma'danlarni boyitishda flotatsiya yordamida oldin molibdenit ajratib olinsa, molibdenli flotatsiya qoldiqlaridan sheyelit olinadi.

Tarkibida molibdenning oksidlangan minerallari (povellit, molibdit) bo'lgan ma'danlarni boyitish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Hozirgi vaqtda povellitli konsentratlarni olish usullari ishlab chiqilgan, ammo tarkibida molibdit bo'lgan ma'danlarni boyitish muammosi hal qilingan emas.

Ba'zi bir mis-molibdenli ayniqsa oksidlangan ma'danlarni boyitishda nokonditsion, oz miqdorli sanoat mahsulotlari olinadi va ularni gidrometallurgik qayta ishlashga qo'yiladi.

Ko'mirli va gilli moddalarda molibden-gilli moddadan hamda molibden-uranli ma'dandan (yordizit va turli molibdatlar) sarbsiyalangan molibden gidrometallurgik usulda qayta ishlab ajratib olinadi.

Tarkibida molibden bo'lgan ma'danlarni birlamchi qayta ishlangandan keyin molibdenli tovar konsentratlar maxsus korxonalarda ferromolibden, trioksidomolibden, kalsiy molibdati va boshqa mahsulotlarga qayta ishlanadi. Molibdenli konsentratlardagi reniy ularni kuydirishda bug'larini (Re_2O_7) tutib qolish yo'li bilan ajratib olinadi.

6. Chiqarilayotgan molibdenli konsentratlar standartga muvofiq 8 ta markaga ajratiladi. Markalarning texnologik talablari va qo'llaniladigan sohalari 4-jadvalda keltirilgan.

Jadval 4.**Molibdenli konsentratning markalari va qo'llaniladigan sohalari**

Marka	Nomi va tavsifi	Miqdori, %									Ko‘proq foydalaniladigan sohalari
		Molibden, kamida	Aralashmalar, kamida								
			Si2O	As	Cu	P	Sh	Na2O	WO3	Sb	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
KMG-B	Oliy navli Gidrometallurgik molibdenli konsentrat	58	0,3	0,03	0,01	0,01	0,01	0,8	2,0	0,01	Molibden asosida ferromolibden va tarkibida molibden bo‘lgan ligaturalar ishlab chiqarish uchun
KMG-1	Birinchi navli gidrometallurgik molibdenli konsentrat	56	0,4	0,04	0,01	0,01	0,01	0,8	4,5	0,01	Molibden asosida ferromolibden va tarkibida molibden bo‘lgan ligaturalar ishlab chiqarish uchun
KMG-2	Ikkinchi navli gidrometallurgik molibdenli konsentrat	54	0,7	0,07	0,01	0,0,2	0,02	1,0	5,0	0,01	Molibden asosida ferromolibden va tarkibida molibden bo‘lgan ligaturalar ishlab chiqarish uchun
KMF-B	Yuqori navli gidrometallurgik molibdenli konsentrat	52	4,0	0,03	0,02	0,02	0,4	Normalanmagan			Molibden disulfidi va molibden tuzlari ishlab chiqarish uchun
KMF-1	Birinchi navli flotatsion molibdenli konsentrat	51	5,0	0,04	0,02	0,02	0,4	Normalanmagan			Ferromolibden, molibden disulfidi va molibden tuzlari ishlab chiqarish uchun
KMF-2	Ikkinchi navli flotatsion molibdenli konsentrat	48	7,0	0,05	0,04	0,03	0,7	Normalanmagan			Ferromolibden, molibden disulfidi va molibden tuzlari ishlab chiqarish uchun

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
KMF-3	Uchinchi navliflotatsion molibdenli konsentrat	47	9,0	0,06	0,05	0,05	1,0	Normalanmagan			Ferromolibden, texnik uch oksidli molibden va molibden tuzlari ishlab chiqarish uchun
KMF-4	To'rtinchi navliflotatsion molibdenli konsentrat	45	11,0.	0,07	0,07	0,05	2,0	Normalanmagan			Texnik uch oksidli molibden va molibden tuzlari ishlab chiqarish uchun

Izohlar:

- 1. Barcha markalardagi flotatsion konsentratlar tarkibidagi namlik va moyning miqdor 8 foizdan, jumladan namlik – 4 foizdan oshmasligi kerak.*
- 2. Molibdenli-kislotali ammoniy ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan konsentratlarda ishqorli metallarning (kaliy va natriy) umumiy miqdori KMF-2 markasida 0,4 foizdan, KMF-3 markasida esa 0,5 foizdan oshmasligi kerak.*

II. KONLARNI GEOLOGIK TUZILISHNING MURAKKABLIGI BO'YICHA GURUHLASH

7. Jismlarining o'lchami va shakli, qalinligining o'zgaruvchanligi, ichki tuzilishi va molibden tarqalish xususiyatlari bo'yicha molibden konlari 26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarning tasnifi"ning 2- va 3-murakkablik guruhlariga mos keladi.

2-guruhga murakkab geologik tuzilishga ega bo'lgan ma'dan tanalari quyidagicha bo'lgan konlar (uchastkalar) kiradi:

-oddiy yoki murakkab shaklli yirik shtokverkli, o'zgaruvchan ichki tuzilishga ega bo'lgan, sanoatbop ma'danlarni ma'dansiz uchastkalar va nokonditsion ma'danlar bilan o'rin almashib turishi bilan tavsiflanuvchi;

-murakkab shaklli yoki molibdenning tarqalishi notekis, yirik qatlamsimon va shtoksimon skarnli uyumlar;

-molibdenning tarqalishi notekis, nisbatan kichik qalinlikdagi yirik va uzun tomirlar yoki ma'danlashgan zonalar.

3-guruhga juda murakkab geologik tuzilishga ega bo'lgan, ma'dan tanalarining o'lchamlari o'rtacha tomirlardan, ma'danlashgan zonalar, tomir- va linzasimon uyumlar, qalinligi keskin o'zgaruvchi hamda molibdenning tarqalishi juda notekis bo'lgan konlar (uchastkalar) kiradi.

"Qattiq foydali qazilmalarning zaxiralari va bashoratli resurslarning tasnifi"ning **4-guruhiga** mayda jilalar, kichik shtoksimon uyumlar, linzalar, uyachalardan iborat uyumlar yoki ma'dan to'plamlarining tarqalishi uzuq-yuluq uyachasimon, juda murakkab tanalardan iborat konlar kiradi. Ular odatda sanoat ahamiyatiga ega emas bo'lib, faqat ishlab turgan kon korxonalari tomonidan yo'l-yo'lakay qazib olishga yaroqlidir.

8. Konning (uchastkaning) u yoki bu guruhga mansub konning umumiy zaxirasining kamida 70 foizini tashkil qiladigan asosiy ma'dan tanalari geologik tuzilishining murakkablik darajasi bo'yicha aniqlanadi.

Molibden yo'ldosh komponent bo'lgan konning murakkablik guruhi asosiy foydali komponent bo'yicha aniqlanadi.

III. KONLARNING O'RGANILGANLIGIGA OID TALABLAR

9. Konlarni yana-da samarali o'rganish uchun geologiya-qidiruv ishlarini bosqichlariga oshirishning rioya qilish, ularni to'la-to'kis va sifatli bajarishga qo'yiladigan talablarni qat'iy bajarish, chamalab qidirish usullari va texnik vositalarini oqilona uyg'unlashtirish, ishlarning natijalarini bosqichma-bosqich geologik- iqtisodiy baholashni o'z vaqtida amalga oshirish lozim. Konlarni o'rganilganligi kompleks baholashni to'liqligini, uni atrof-muhitni muhofaza qilish talablarga rioya qilgan holda kompleks o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Molibdenni yo'ldosh foydali komponent sifatida o'rganishga oid talablar DZK 28-son bayonnomasi bilan 18.08.2018 yilda tasdiqlangan "Qattiq foydali

qazilmalar konlaridagi yo‘ldosh foydali qazilmalar va yo‘ldosh foydali komponentlarni o‘rganish tartibi bo‘yicha Nizom” bo‘yicha belgilanadi.

10. Yangi ochilgan istiqbolli konlarda ularni sanoat ahamiyatini aniqlash uchun yetarli hajmlarda baholash o‘tkaziladi. Ijobiy geologik-iqtisodiy baho olinganda va buyurtmachi bor bo‘lganda, qidirish ishlari konni qazib olishga jalb qilish bilan olib boriladi.

11. Konni baholash va qidiruv ishlari natijalariga ko‘ra, molibden ma‘danlari va metall, yo‘ldosh foydali qazilmalar va sanoat ahamiyatiga ega foydali komponentlarning geologik va ekspluatatsion zaxiralari belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi va “qattiq foydali qazilmalarning zaxiralari va prognoz resurslari tasnifi”ning I, III va V boblariga muvofiq tasdiqlanadi. Hisoblash natijalarining konturi ortida P_1 toifadagi prognoz resurslar baholanadi.

12. Kon bo‘yicha masshtabi obyektning o‘lchamiga, geologik tuzilishining xususiyatlariga va relyefiga mos keladigan topografik asos tuzilishi lozim. Molibden konlarining topografik xaritalari va rejaları odatda 1:1000-1:5000 masshtabda tuziladi. Barcha qidiruv va qazib olish ishlari (kanavalar, shurflar, shtolnyalar, quduqlar), batafsil geofizik kuzatishlar profillari, shuningdek, ma‘dan tanalari va minerallashgan zonalarining tabiiy chiqishlari instrumental bog‘langan bo‘lishi kerak. Yer osti kon inshootlari va quduqlar marksheyder syomkasi ma‘lumotlariga ko‘ra rejalariga tushiriladi. Yer osti tog‘ inshootlari va quduqlari rejalariga marksheyderlik syomkasi ma‘lumotlari asosida kiritiladi. Tog‘-kon ishlari gorizontlarining marksheyderlik rejaları odatda 1:200 masshtabda, jamlanma rejalar esa 1:1000 dan kam bo‘lmagan masshtabda tuziladi. Quduqlar uchun, ularning ma‘dan tanasining usti va ostki bilan kesishish nuqtalarining koordinatalari hisoblanishi hamda ularning stvollari ilovasi qurilishi reja va kesimlar yuzasida amalga oshirilishi kerak.

13. Konning geologik tuzilishi har tomonlama o‘rganilishi va geologik xaritada 1:1000-1:5000 masshtabda (konning kattaligi va murakkabligiga qarab), geologik kesmalar, rejalar, 1:500-1:1000 masshtabli proyeksiyalar, hajmli modellar, zarur hollarda esa – ma‘dan tanasining tub (usti) qatlaminining strukturaviy rejalarida, izomikdorlar rejalarining izometrogrammalarida aks ettirilishi lozim. Konning geologik va geofizik materiallari ma‘dan tanasining kattaligi va shakli, ularning yotish sharoiti, ichki tuzilishi va uzluksizligi, ma‘dan tanasining nuraganligi, ulardagi foydali qazilmaning tarqalishi, qamrov jinslarning o‘zgaruvchanlik xususiyatlari va ma‘dan jinslarining qamrov jinslar, burmali tuzilmalar va tektonik buzilishlar bilan geologik zaxiralarni hisoblashni asoslash uchun zarur va yetarli darajada bog‘liqligi haqida tushuncha bera olishi kerak. Shuningdek, konning geologik chegaralarini va prognoz resurslarinig P_1 toifasini baholanadigan istiqbolli hududlarning joylashishini aniqlaydigan qidiruv mezonlarini asoslash lozim.

Kon rayoni va ma‘dan maydoni bo‘yicha 1:25000-1:50000 masshtabdagi tegishli geologik qirqimga ega geologik xarita va foydali qazilmalar xaritasi taqdim qilinadi. Ko‘rsatilgan materiallar molibden bo‘yicha ma‘dan nazorat qiluvchi strukturalar, va jinslar, molibden konlarining ma‘dan qamrovchi komplekslarini va

molibdenning prognoz resurslari baholangan istiqbolli maydonlar joylashuvini aks ettirishi lozim. Geofizik tadqiqotlar natijalaridan geologik xaritalar va ularning kesimlarini tuzishda foydalanish hamda jamlama rejalarda taqdim qilinayotgan geologik xaritalar doirasida geofizik anomalionalarni izohlab berish zarur.

14. Ma'dan tanalarining yoki minerallashgan zonalarning yer yuzasiga chiqqan va yaqin joylashgan qismlari tog' inshootlari va mayda burg'i quduqlari bilan, geofizika va geokimyoviy usullarni qo'llab o'rganilishi va ma'dan tanalarini morfologiyasi hamda yotish sharoitlarini, oksidlanish zonasini rivojlanish chuqurligi va tuzilishi ma'danlarni oksidlanish zonasi va ular tarkibida molibden miqdorining pasayishi, birlamchi, aralash va oksidlangan ma'danlarni moddiy tarkibi va texnologik xossalarini aniqlash imkonini beradigan mufassallikda namunalanishi kerak va sanoat (texnologik) tiplari bo'yicha ayrim-ayrim zaxiralarini hisoblashni bajarish kerak.

15. Konning chuqurligini baholash odatda quduqlar bilan, qidirish – konning geologik tuzilishi o'ta murakkabligida tog' inshootlari va quduqlar bilan amalga oshiriladi.

Qidirish uslubiyati ya'ni tog' ishlari va burg'ilash ishlari hajmlarining nisbati, tog' inshootlari turlari va burg'ilash usullari, qidiruv to'ring geometriyasi va zichligi, namunalash usullari va yo'llari geologik tuzilish murakkabligi guruhiga mos kategoriyalar bo'yicha kondagi geologik zaxirani hisoblab chiqish imkonini ta'minlashi zarur. U ma'dan tanasining geologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qidiruvning tog'-kon, burg'ilash va geofizik vositalari, shunga o'xshash turdagi konni qidirish va o'zlashtirish tajribasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Qidiruvning maqbul variantini tanlashda molibden miqdorining o'zgaruvchanligi darajasi va uning fazoviy taqsimoti xarakteri, ma'daning teksturaviy-strukturaviy xususiyatlari hamda burg'ilash davomida kernning yedirilishi ehtimoli va tog' inshootlarida namunalashda molibden va ma'dansiz minerallarning rangga kirishini inobatga olish lozim. Shuningdek, qidiruvning turli variantlari bo'yicha ishlarning qiyosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va bajarish muddatlarini ham e'tibordan chiqarmaslik zarur.

Konni baholash ma'danlashuv tarqalishi xarakteri, izlash maqsadida burg'ilash ma'lumotlari, geofizik tadqiqotlar ma'lumotlarini inobatga olgan holda chuqurlik bo'yicha amalga oshiriladi. Qidiruv chuqurligi konni o'zlashtirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda o'zlashtirish uchun iqtisodiy asoslangan gorizontlar bilan cheklanadi.

16. Molibden zaxiralarini hisoblashning ishonchliligini ta'minlashda ustunli burg'ilash – burg'ilashning asosiy usuli hisoblanadi. Sharoshkali burg'ilash minerallashuv zonalari va molibden konsentratsiyasi yuqori bo'lgan zonalarni belgilash uchun baholash ishlarini o'tkazish vaqtida qo'llaniladi.

Ustunli burg'ilash quduqlari bo'yicha ma'dan tanalari va qamrab oluvchi jinslar, ularning quvvati, ma'dan tanalarining ichki tuzilishi, ma'dan atrofidagi o'zgarishlarning tabiati, ma'danning tabiiy turlari tarqalishi, ularning strukturasi va teksturasi hamda namunalash materialining ishonchliligi xususiyatlarini kerakli

aniqlik bilan aniqlashtirishni ta'minlaydigan hajmda yaxshi saqlangan kerning maksimal chiqishi olinishi lozim.

Geologik qidiruv ishlari tajribasiga ko'ra har bir burg'ilash reysi bo'yicha kern chiqishi kamida 90 foizni tashkil qilishi zarur.

Kernning chiziqli chiqishi aniqlanishi haqiqiylikini boshqa usullar orqali tizimli ravishda nazorat qilish lozim.

Molibden miqdori va ma'dan intervallarining quvvatini aniqlash uchun kernning ishonchliligi uning tanlanma ishqalanishi imkoniyatlarining tadqiqoti bilan tasdiqlanishi zarur. Buning uchun ma'danlarning asosiy turlari bo'yicha kernni va shlamni (turlicha kern chiqqan oraliqlar bo'yicha) namunalash natijalarini oraliqlar bo'yicha tog' inshootlari, zarbali burg'ilash, pnevmozarbali va sharoshkali burg'ilash, shuningdek kern qabul qiluvchi moslamasi bo'lgan kolonkali burg'ilash ma'lumotlari bilan taqqoslash kerak. Kernning kam chiqishida yoki namunalash natijalarini sezilarli buzadigan tanlanma ishqalanishida qidiruvning boshqa texnik vositalarini qo'llash zarur.

Burg'ilashning ishonchliligini oshirishi uchun yo'naltirilgan kernni qo'llash, kernni batafsil hujjatlashtirish bilan uning holatini baholash, ratsional majmua qo'yilgan vazifaga qarab belgilanadigan quduqlardagi geofizik tadqiqotlar ma'lumotlarini ishlatish, konning aniq geologik-geofizik sharoitlari va geofizikaning zamonaviy usullarini qo'llash lozim. Ma'dan intervalini aniqlash va ularning parametrlarini aniqlash uchun samarali karotaj kompleksi baholash bosqichida konda burg'ilangan barcha quduqlarda bajarilishi kerak.

Chuqurligi 100 metrdan ortiq vertikal va qiya barcha quduqlarda, jumladan yer osti quduqlarida quduqlarning azimut va zenit burchaklari har 20 metrdan nazorat o'lchovlari bilan aniqlanishi va tasdiqlanishi lozim. Mazkur o'lchovlar natijalarini geologik qirqimlar, gorizontli rejalar qurishda va ma'dan intervallari quvvatini hisoblashda inobatga olish zarur. Kon stvollarida tog' inshootlarining qirg'ilishlari mavjudligida, o'lchovlar natijalari marksheyderlik bog'lamalari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Tik tushadigan ma'dan tanalarini kesishish uchun yonlama burg'ilash va quduqning sun'iy egrilanishi qo'llash maqsadga muvofiq. Qidiruv samaradorligini oshirish maqsadida, ko'p zaboyli burg'i quduqlarini burg'ilash, tog' inshootlari bo'lgan taqdirda esa yer osti burg'i quduqlarini burg'ilash kerak. Ma'dan bo'yicha burg'ilashni bitta diametrda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

17. **2-guruh** konlarda B toifa zaxiralarini, va **3-guruh** konlarda esa C₁ toifa zaxiralarini hisoblashda, ma'danlarni yotish sharoitlarini, morfologiyasini, ichki tuzilishini, yaxlitligini va moddiy tarkibini aniqlashda, shuningdek burg'i quduqlari namunalashni, geofizika tadqiqotlarini va texnologik namunalarni olishni ishonchliligini mufassal o'rganishda tog' inshootlari (burg'i quduqlari bilan birgalikda) asosiy vosita hisoblanadi.

Ma'dan tanalarining yaxlitligi va Ma'danlashuvning o'zgaruvchanligi, ularni yotishi va cho'zilishi bo'yicha yetarli hajmda e'tiborli uchastkalarda o'rganilishi kerak: qalinligi kichik bo'lgan tomir tipidagi ma'dan tanalarida shtrek va yuqoriga qarab o'tiluvchi tog' inshootlari bilan, qalinligi katta ma'dan tanalarida esa ort,

kvershlag, yer osti gorizontal burg'i quduqlari bilan.

Tog' inshootlaridan foydalanishni eng asosiy maqsadi – juyakli namuna olishdan va burg'i quduqlarini burg'ilashda tarkibida molibden bo'lgan minerallarni tanlanib yemirilishini geologik qurilmalar va zaxiralarni hisoblash uchun jo'yakli va burg'i quduqlari namunalarini ma'lumotlaridan hamda geofizika tadqiqotlari natijalaridan foydalanish imkoniyatini aniqlashdir. Tog' inshootlar eng avvalo detalizatsiya uchastkalarida hamda birinchi navbatda o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan kon uchastkalarida (gorizontlarida kovlab o'tilishi lozim.

18. Qidiruv tog' inshootlari va ular orasidagi masofa ma'dan tanalarining har bir strukturaviy-morfologik turi uchun ularning o'lchami, quvvati, geologik tuzilishi va molibden tarqalishining xarakterini inobatga olgan holda aniqlanishi lozim.

5-jadvalda keltirilgan molibden ma'danlari konlarini qidirishda foydalanilgan ma'lumotlardan geologiya-qidiruv ishlarini loyihalashtirishda foydalanish mumkin bo'lib, ularni qo'llash ixtiyoriy ahamiyatga ega.

Har bir kon uchun mufassallashtirish uchastkalarini o'rganish asosida va barcha mavjud geologik, geofizik va ushbu kondan yoki shunga o'xshashidan foydalanish materiallarini mukammal tahlil qilib, qidiruv inshootlarini eng ratsional geometriyasi va to'ri zichligi asoslanadi.

5-jadval

Molibden ma'danlari konlarini qidirishda qo'llanilgan qidiruv inshootlari zichligi xakida ma'lumotlar

Konlar- ning guruhi	Ma'dan tanalarining xususiyati	Tog' inshootlari turi	Tog' inshootlari bilan ma'dan tanalarini kesishgan yerlari orasidagi masofa (metrda) zaxiralar toifalari bo'yicha					
			B		C ₁		C ₂	
			cho'zilishi bo'yicha	tushishi bo'yicha	cho'zilishi bo'yicha	tushishi bo'yicha	cho'zilishi bo'yicha	tushishi bo'yicha
2	Ichki tuzilishi o'zgaruvchan, oddiy shaklli yirik shtokverklar	Shtolnyalar,	-	60-80	-	-	-	-
		Ortalar	100-200	-	-	-	-	-
		yuqoriga qaragan	100-120	-	-	-	-	-
		Quduqlar	100-200	100-120	100-200	100-200	200-400	100-200
	Ichki tuzilishi o'zgaruvchan, murakkab shaklli yirik shtokverklar	Shtolnyalar,	-	60-80	-	-	-	-
		Ortalar	50-60	-	-	-	-	-
		yuqoriga qaragan	100-120	-	-	-	-	-
		Quduqlar	50-60	50-60	100-120	100-120	200-240	100-200
	Murakkab shaklli yoki molibdenning tarqalishi notekis, yirik qatlamsimon, shtoksimon skarnli uyumlar	Shtolnyalar,	-	60-80	-	-	-	-
		Ortalar	20-30	-	-	-	-	-
		yuqoriga qaragan	100-120	-	-	-	-	-
		Quduqlar	40-60	40-50	80-120	80-100	200-240	100-200
	Molibdenning tarqalishi notekis, nisbatan kichik qalinlikdagi yirik va uzun tomirlar yoki ma'danlashgan zonalar	Shtolnyalar,	-	60-80	-	-	-	-
		Ortalar rassechkalar	10-20	-	-	-	-	-
		yuqoriga qaragan	100-120	-	-	-	-	-
		Quduqlar	40-60	40-50	80-120	80-100	160-240	80-100
3	Katta bo'lmagan yoki keskin o'zgaruvchan qalinlikda yoki molibdenning tarqalishi juda notekis, o'lchamlari o'rtacha tomirlar, ma'danlashgan zonalar, tomirsimon va linzasimon skarnli uyumlar	Shtolnyalar,	-	-	-	40-60	-	80-120
		Ortalar	-	-	10-20	-	20-40	-
		yuqoriga qaragan	-	-	60-120	-	120-240	-
		Quduqlar	-	-	30-60	30-50	60-120	30-50

19. Konni birinchi navbatda ishlatishga oid chamalab qidirish ishlarini texnik-iqtisodiy asoslash chogʻida koʻzda tutilgan uchastkalar va gorizontlar mufassalroq chamalab qidirilishi kerak. Konning ana shunday uchastkalari va gorizontlaridagi va 2-guruhlarga taalluqli zaxiralari koʻproq B toifasi, 3-guruh konlari esa S1 toifalari boʻyicha chamalab qidirilishi lozim. Birinchi navbatda oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan uchastkalar, geologik tuzilishining oʻziga xos xususiyatlari, foydali qazilma sifati va konning geologik sharoitlariga koʻra butun konga xarakterli boʻlmasa, ushbu talablarga mos uchastkalar batafsil oʻrganiladi.

Detallashtirish uchastkalarida olingan maʼlumotlar konning murakkablik guruhini asoslash, qidiruv tarmogʻining qabul qilingan geometriyasi va zichligi va tanlangan texnik qidiruv vositalarining uning geologik tuzilishi xususiyatlariga muvofiqligini tasdiqlash, namunalash natijalari va hisoblash parametrlarining ishonchliligini baholash uchun qolgan maydonda zaxiralarni hisoblashda olishda ishlatiladi.

Oʻzlashtirilayotgan konlarda shu maqsadda operatsion qidiruv va oʻzlashtirish natijalari qoʻllaniladi.

20. Maʼdan tanalari yoki zonalarining barcha qidiruv ishlari va yer yuzasiga chiqishi ularni avtomatlashtirilgan qayta ishlash imkoniyati bilan standart shakllar asosida hujjatlashtirilishi kerak. Kern va togʻ inshootlarini foto hujjatlashtirish ham amalga oshiriladi. Namunalash natijalari birlamchi hujjatlashtirishga taqdim qilinadi va geologik tavsifga muvofiq tekshiriladi.

Birlamchi hujjatlashtirishning toʻliqligi va sifati, konning geologik xususiyatlariga muvofiqligi, tarkibiy elementlarning fazoviy holatini aniqlashning toʻgʻriligi, eskizlar, fotosuratlar va ularning tavsiflarini tuzish belgilangan tartibda vakolatli komissiyalarning natura bilan taqqoslash orqali muntazam ravishda nazorat qilinishi kerak.

Shuningdek geologiyaga oid jamlama materiallarning dastlabki hujjatlarga muvofiq kelishi, materialning yetarli darajada kattagina hajmiga doir belgilangan tartibda, nufuzli komissiyalar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib borilishi kerak. Bundan tashqari, yigʻma geologik materiallarning geologik materiallar bilan muvofiqligini nazorat qilish zarur. Tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

21. Foydali qazilmaning sifatini oʻrganish, maʼdan tanasini konturlash va zaxiralarni hisoblab chiqish uchun qidiruv togʻ inshootlarida ochilgan yoki tabiiy namoyonlarda aniqlangan barcha maʼdan intervallari namunalanishi lozim.

22. Namunalash usullarining tanlanishi konning oʻziga xos geologik xususiyatlari asosida amalga oshiriladi.

Konda qabul qilingan namunalash usuli natijalarning eng katta ishonchliligi yetarli mahsuldorlik va samaradorlik bilan taʼminlanishi kerak. Namunalashning bir nechta usullari qoʻllanilsa, ular natijalarning aniqligi va ishonchliligiga qarab taqqoslanishi kerak.

23. Qidiruv uchastkalarini namunalash quyidagi majburiy shartlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

- namuna olish tarmog'i barqaror bo'lishi, uning zichligi konning o'rganilayotgan maydonlarining geologik xususiyatlari bilan belgilanadi va odatda konlar tajribasi, analoglari va yangi obyektlarda – tajribaviy ravishda o'rnatiladi. Namunalar konlar va ma'dan tanalarining (ma'dan zonalarining) o'zaro kesishmasida mineralizatsiyaning maksimal o'zgaruvchanligi yo'nalishi bo'yicha olinishi kerak. Ma'dan jismlari qidiruv ishlari (ayniqsa quduqlar) bilan maksimal o'zgaruvchanlik yo'nalishiga keskin burchak ostida kesishsa (agar namunalashning ishonchliligiga shubha bo'lsa), nazorat yoki taqqoslash ishlari zaxiralarni hisoblashda ushbu kesishmalarni namunalash natijalaridan foydalanish imkoniyatini isbotlashi zarur.

- namunalash sanoat konturida konditsiyalarga muvofiq kiritilgan bo'sh yoki sifatsiz qatlam quvvatini cheksiz miqdorda qamrovchi jinslarning kirishining ma'dan tanasi to'liq quvvat bilan, doimiy amalga oshirilishi lozim. Aniq geologik chegaralari bo'lmagan ma'dan organlari uchun – barcha qidiruv bo'limlarda va ma'dan organlari uchun aniq geologik chegaralar bilan-siyrak ish tarmog'i bo'ylab amalga oshiriladi. Ariqlarda, chuqurlarda, xandaqlarda, ma'danlarning ildizli chiqishidan tashqari, ularning nurash mahsulotlari ham namunalashdan o'tkazilishi kerak;

- tog' inshootlarini (kanava, shtrek, rassechka va b.) namunalash seksiyalar bo'ycha 5x10 sm o'lchamli jo'yaklarda amalga oshirilishi lozim. Bu bir qator ma'danli konlardagi tajriba ishlari bilan bir necha bor isbotlangan.

- ma'dan tanalarining zalbandlaridagi ma'danlar va minerallashgan jinslarning tabiiy navlari alohida – seksiyalarda namunalashdan o'tkazilishi kerak. Har bir seksiyaning uzunligi (oddiy namuna) ma'dan tanasining ichki tuzilishi, material tarkibining o'zgaruvchanligi, teksturaviy-strukturaviy xususiyatlari, fizik-mexanik va boshqa xususiyatlar bo'yicha, quduqlarda esa – reys uzunligi bo'yicha aniqlanadi. Bu konditsiyalar bilan belgilangan ma'dan tanalarining minimal quvvatidan, shuningdek, ichki va sifatsiz qatlamlarning maksimal quvvatidan oshmasligi zarur. Shu bilan birga, turli xil kern rentabelligi bilan tavsiflangan intervallar alohida namunalashdan o'tkaziladi. Tanlangan kern ishqalanishi mavjud bo'lganda, kern va maydalangan mahsulotlar namunalashdan o'tkaziladi, ular kern va maydalangan mahsulotlar namunalashdan o'tkaziladi. Kern bilan bir xil intervalda mustaqil namuna olinadi namuna alohida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

Namuna olish ma'dan tanasini to'liq kesib o'tadigan kon inshootlarida inshootning ikkita devori bo'ylab, ma'dan tanasining yotishi bo'ylab o'tgan inshootlarda – zaboylarda amalga oshirilishi kerak. Izlash inshootlarida namunalar orasidagi masofa 1-4 metrdan oshmasligi lozim (namuna olish qadami eksperimental ma'lumotlar bilan tasdiqlanishi zarur). Ma'dan tanalari tik yotgan barcha gorizontal tog' inshootlaridagi barcha namunalar doimiy, oldindan belgilangan balandlikda joylashtiriladi. Qabul qilingan namunaviy parametrlar tajriba ishlari bilan asoslanishi kerak. Shuningdek, tog' inshooti uchun qabul qilingan namunalash usuli uchun ma'danli yoki jinsli minerallarning ranglanishi ehtimolini o'rganish ishlari amalga oshiriladi.

Ma'dan tanalarini to'liq quvvatini ochmaydigan shtrek, ko'tarilish, gezenk,

quduqlardan namuna olish ma'lumotlaridan zaxiralarni hisoblashda foydalanilmaydi. Ma'dan tanalarining to'liq quvvatini ochgan yuqoriga ko'tarilgan namunalari ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati har bir holatda molibden bilan boyitilgan maydonlarni (ma'dan ustunlari) taqsimlash xususiyatidan kelib chiqib asoslanishi kerak.

24. Har bir qabul qilingan usul va ma'danlarning asosiy turlari bo'yicha, namuna olish sifati natijalarning to'g'riligi va ishonchliligini baholagan holda tizimli ravishda nazorat qilinishi lozim. Namunalarning geologik tuzilish elementlariga nisbatan holatini va ma'dan tanalarining quvvati bo'yicha konturlanishining ishonchliligiga, namunalarning qabul qilingan parametrlarining izchilligini va haqiqiy massaning jo'yakning qabul qilingan kesimi yoki haqiqiy diametri va kernning chiqishi asosida hisoblangan namunaga (ma'dan zichligi o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, og'ishlar $\pm 10-20$ foizdan oshmasligi kerak) mosligini o'z vaqtida tekshirish zarur. Jo'yakdan namuna olishning aniqligini xuddi shunday kesimli biriktirilgan jo'yaklardan namuna olish bilan, kerndan namuna olishda – kernning ikkinchi yarmidan namuna olish yo'li bilan nazorat qilinishi zarur.

Tabiiy yotishdagi geofizik namunalashda uskunalarning faoliyatining barqarorligi va usulning odatiy va nazorat o'lchovlaridagi bir xil sharoitlarida qaytarilishi nazorat qilinadi. Geofizik namunalashning ishonchliligi tanlanma ishqalanish mavjud emasligi isbotlangan yuqori kern chiqishiga ega tayanch intervallar bo'yicha geologik va geofizik namunalash ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Namuna olishning aniqligiga ta'sir qiluvchi kamchiliklar aniqlansa, ma'dan intervalidan qayta namuna olish kerak.

Namuna olishning qabul qilingan uslubi va usullarining ishonchliligi, mavjud uslubiy tavsiyalarga muvofiq ishonchlilik usuli, odatda yalpi nazorat qilinadi. Shu maqsadda hamda texnologik namunalarning ma'lumotlaridan, ustunlardagi zichlik va qazib olish natijalarini aniqlash uchun olingan quyma namunalardan foydalanish kerak.

Nazorat namunalarning hajmi natijalarni statistik qayta ishlash va tizimli xatolarning yo'qligi yoki mavjudligi to'g'risida asosli xulosalar chiqarish, zaruratga ko'ra tuzatish koeffitsiyentlarini kiritish uchun yetarli bo'lishi lozim.

25. Namunalarni qayta ishlash molibdenning tarqalish xususiyati, molibdenning hajmi va shaklini hisobga olgan holda har bir kon bo'yicha ishlab chiqilgan sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi. Asosiy va nazorat namunalari yagona sxema bo'yicha qayta ishlanadi.

Qayta ishlash sifati barcha operatsiyalar uchun, "K" koeffitsiyentining haqiqiyliigi va ishlov berish sxemasiga muvofiqligi nuqtai nazaridan tizimli nazorat qilinishi kerak.

Yirik miqyosli nazorat namunalarni qayta ishlash eng kam vazn va tahlilga olinadigan namunachalar miqdorini aniqlash bo'yicha tajriba ishlarini o'z ichiga olgan, maxsus tuzilgan dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.

26. Ma'danlarning kimyoviy tarkibi molibden tarkibi va uning probasi, tegishli foydali komponentlarning mavjudligi va sanoat ahamiyati hamda zararli aralashmalarni aniqlashni ta'minlaydigan darajadagi mukammallik bilan o'rganilishi kerak. Ma'dandagi ularning tarkibi standartlarda belgilangan kimyoviy, tahlil, spektral, fizik va boshqa usullar bilan namunalarni tahlil qilish bilan aniqlanadi.

Ma'danlardagi yo'ldosh komponentlarni o'rganish DZK tomonidan tasdiqlangan "Qattiq foydali qazilma konlarida birga uchraydigan foydali qazilmalar va birga uchrovchi foydali komponentlarni o'rganish tartibi to'g'risida Nizom"ga (18.08.2018 yildagi DZK 28-son bayonnomasi) muvofiq amalga oshiriladi.

Barcha oddiy namunalar, odatda ularning tarkibidagi molibden, kumush hamda boshqa komponentlar (mis, rux, qo'rg'oshin, vismut, va B.) mavjudligini aniqlash maqsadida tahlil qilinadi, ularning miqdori ma'danli jismlarni quvvati bo'yicha chegaralashda hisobga olinadi. Boshqa foydali komponentlar (kadmiy, selen, tellur, indiy va b.) va zararli aralashmalar (surma, mishyak, uglerod va b.) odatda guruhli namunalar bo'yicha aniqlanadi.

Oddiy namunalarni guruhlarga birlashtirish tartibi, uning joylashuvi va umumiy soni ma'danlarning asosiy turlarini yo'ldosh komponentlar va zararli aralashmalarga namunalash va ularning tarkibi ma'dan tanalari yoyilishi va tushishi bo'yicha o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganishni ta'minlashi zarur.

Birlamchi ma'danlarning oksidlanish darajasini aniqlash va oksidlanish zonasi chegarasini belgilash uchun fazali tahlillar bajarilishi kerak.

27. Namunalar tahlillarning sifati muntazam tekshirib turilishi zarur, nazorat natijalariga esa o'z vaqtida ishlov berilishi lozim. Namunalar tahlillarining geologik nazorati konni qidirish davri davomida laboratoriya nazoratiga bog'lik bo'lmagan holda amalga oshirilishi kerak. Asosiy va yo'ldosh komponentlarning barchasi hamda zararli aralashmalarni aniqlash uchun bajarilgan tahlil natijalari nazoratda bo'lishi shart.

28. Tasodifiy xatoliklarning miqdorini aniqlash uchun asosiy tahlillarni amalga oshiradigan laboratoriyada ikki nusxadagi tahliliy namunalardan olingan shifrlangan nazorat namunalarini tahlil qilish orqali ichki nazoratni amalga oshirish kerak.

Ehtimoliy tizimli xatoliklarni aniqlash va baholashning tashqi nazorati, nazorat maqomiga ega laboratoriyada o'tkazilishi kerak.

Asosiy laboratoriyada saqlanadigan va ichki nazoratdan o'tgan tahliliy namunalarning ikkinchi nusxalari tashqi nazoratga yuboriladi. O'rganilayotgan namunalarga o'xshash, standart namunalar tarkibi (SNT) mavjud bo'lganda, tashqi nazorat, jumladan asosiy laboratoriyaga tahlil uchun taqdim etilgan namunalar partiyasiga shifrlangan shaklda kiritilishi kerak.

Ichki va tashqi nazoratga yuborilgan namunalar konning barcha turdagi ma'danlari va miqdorini tavsiflashi lozim. Tahlil qilingan komponentlarning noodatiy tarkibini ko'rsatadigan barcha namunalar, jumladan "bo'ronli" namunalar ichki va tashqi nazoratga yuboriladi.

29. Ichki va tashqi nazorat hajmi har bir sinf bo'yicha qidirish davri va tarkibini tanlash imkonini ta'minlashi kerak.

